

O'ZBEKISTONDA LEGAL TECH RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI VA HOZIRGI HOLATI

Toxirova Shodiya Shaxzod qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti

I.Kirish

21-asr barcha sohalarda texnologiyalar rivojlanmoqda. Huquq (*ingilizcha-legal*) sohasini texnologiyalar (*ingilizcha-technology*) bilan bog'laganda Legal Tech yuzaga keladi ya'ni quyidagi mazmuni anglatadi. Legal Tech - bu yuridik ishlar samaradorligini oshirish va avtomatlashtirish uchun texnologiyalardan foydalanishni anglatadi. U yuridik faoliyat bilan bog'liq dasturiy ta'minot va vositalarni, ya'ni yuristlar, yuridik firmalar hamda butun adliya tizimi uchun mo'ljallangan vositalarni o'z ichiga oladi. Bu sohada hujjat aylanishi, tadqiqot, hisob-fakturalar tuzish va standart shakllar yaratish kabi jarayonlarni optimallashtirish bilan shug'ullaniladi. Nima sababdan Legal Tech dolzarblashib bormoqda? Legal Techning dolzarbligi shundaki, zamonoviy dunyoda huquqiy tizimni texnologiyalar yordamida ish samadorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va adolatni yanada takomillashtirishda kelib chiqadi. Uning afzaliklari nimada? Uning afzaliklari:

Samaradorlikni oshirish: Legal Tech vositalari huquqshunoslarning ish unumdorligini oshirishga yordam beradi, chunki ular ko'p vaqt talab qiladigan va takrorlanadigan vazifalarni avtomatlashtiradi.

Xarajatlarni kamaytirish: Texnologiyadan foydalanish orqali huquqiy xizmatlar narxini pasaytirish mumkin, bu esa mijozlar uchun foydalidir.

Aniqlikni oshirish: Legal Tech vositalari xatolarni kamaytiradi va huquqiy hujjatlarning sifatini oshiradi.

Mijozlarga qulaylik yaratish: Onlayn platformalar va mobil ilovalar mijozlarga o'zlari uchun qulay vaqtda va joyda huquqiy xizmatlarga kirish imkonini beradi.

Legal Tech nima uchun huquqshunoslar uchun muhim?

Raqobatbardoshlikni oshirish: Legal Tech vositalaridan foydalanish huquqshunoslarni o'z sohasida raqobatbardosh bo'lishga yordam beradi.

Mijozlarning o'sib borayotgan talablariga javob berish: Mijozlar tezkor, samarali va arzon huquqiy xizmatlarni kutishadi. Legal Tech bu talablarga javob berishga yordam beradi.

Yangi imkoniyatlarni kashf etish: Texnologiya huquqshunoslarni innovatsion xizmatlarni taklif qilish va yangi bozorlarni o'zlashtirish imkonini beradi.¹

Legal Techda ko'plab afzaliklar va qulayliklar bo'lganidek bir qator kamchiliklar ham bor. Masalan;

Moliyaviy to'siqlar: Legal Techni to'laqonli tizimlashtirish uchun ko'plab yangi texnologiyalar kerak bo'ladi. Har bir sohani oxirgi rusumdagi texnologiyalar bilan jihozlashda moliyaviy to'siqlar yoki ularni barcha sohaga kirib borguncha ma'lum bir muddatni talab qiladi. Bu orada bo'shliqlarni yuzaga keltiradi.

Malakali kadrlarning yetishmasligi: Kundan-kunga dunyoda yanayam texnologiya rivojlanib bormoqda. Shu sababli, O'zbekistonda mutaxassislar yetarli emas. 2020-2025-yillarga kelib huquq va texnologiya sohalari birlashib yuristlar faqatgina qonunlarni emas, hamda qonunlarni texnologiya orqali ishlatishni o'rganmoqda. Ammo, hali ham malakali kadrlarni soni kam.

¹ Islombek Abdixakimov Legal Tech: Huquqshunoslik Sohasidagi Texnologik Inqilob (<https://civil.uz/author/islombek/>).

Qonunchilikdagi nomuvofiqliklar: Yangi texnologiyalar shiddat bilan tus olayotganda qonunlar ijodkorligi biroz ortda qolmoqda. Masalan sun'iy intellekt 2025-yilning eng dolzarb mavzusi ammo, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida hali ham sun'iy intellekt munosabati tartibga solinmagan.

Yangi texnologiyalarni joriy etishga qarshilik: Barcha sohalarda, hatto huquq sohasida ham an'anaviy ish uslublarini qo'llash odat tusiga kirgan, shuning uchun xodimlar, asosan yoshi nisbatan katta xodimlar yangi texnologiyalarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelganliklari sababli ular tomonidan qarshiliklar ko'rsatilishi mumkin. Bu esa raqamli texnologiyalarning birdek to'liq qabul qilinmasligiga olib keladi.

O'zbekiston qonunchiligida Legal Techni rivojlantirishni yanada takomillashtiruvchi notmativ-huquqiy hujjatlar. Avvalambor «Raqamli O'zbekiston- 2030» strategiyasini olsak unging asosiy maqsadi mamlakatda raqamli iqtisodiyot va texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlarini o'rganish hamda ularning davlat boshqaruvi va huquqiy sohadagi ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Legal Techni qo'llab turuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunlari: "Elektron hukumat", "Elektron raqamli imzo", "Kiber xavfsizlik to'g'risida", "Telekommunikatsiya to'g'risida" va "Elektron savdo to'g'risida" va shunga o'xshash ko'plab qonunlar mavjud.

S.Xasanboyeva Legal Tech haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi "O'zbekistonda LegalTech sohasida milliy ragamli yuridik xizmatlar platformasi huquqiy xizmat ko'rsatishning muhim tarkibiy bo'lagi hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat huquqiy xizmatlar ko'rsatish natijadorligini keskin oshiradi, balki fugarolar tadbirkorlarning odil sudlovga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashda ahamiyatli o'rin egallaydi. Shu jumladan takidlash joizki, O'zbekiston

Respublikasida ham oxirgi yillarda «Raqamli O'zbekiston- 2030» strategiyasi ko'lamida islohotlar amalga oshirilmoqda»²

II. Metodologiya

Ushbu tadqiqotda Legal Tech sohasining mazmuni, ahamiyati va O'zbekistondagi rivojlanish jarayonini o'rganish uchun huquqiy tahlil, tahliliy va usullaridan foydalanildi.

Birinchidan, huquqiy tahlil usuli orqali Legal Tech bilan bog'liq qonunchilik va «Raqamli O'zbekiston- 2030» strategiyasidagi normalari o'rganildi. Mazkur hujjatlar asosida yuridik sohada raqamlashtirishni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va amaliy chora-tadbirlar tahlil qilindi.

Ikkinchidan, tahliliy usul yordamida Legal Tech tushunchasi, uning afzaliklari va kamchiliklari ilmiy manbalar va maqolalar asosida o'rganildi. Legal Techning huquqiy tizimdagi o'рни, samadorligini oshirishdagi roli va texnologiyalar orqali yuridik faoliyatni avtomatlashtirish imloniyatlari tahlil qilindi.

S.Xasanboyevaning maqolalaridan ilmiy fikrlari asos qilib olindi. Xasanboyevaning qarashlari orqali raqamli texnologiyalar va huquqiy soha o'zaro integratsiyasining ijtimoiy-huquqiy ahamiyati yoritildi.

Tadqiqotda empiric yondashuv asosida mavjud bo'lgan ma'lumotlar, strategiya va hukumat qarorlari tahlil qilinib, raqamli texnologiyalar huquq tomondan joriy qilingaligi amaliy jihatdan yoritilib berildi. Hamda kontent-tahlilihan o'tqazildi u orqali davlat strategiyalari, qonunlar hamda «Raqamli O'zbekiston- 2030» haqidagi hujjatlari raqamlashtirish haqida belgilangan ustuvor

² . X Xasanboyeva. (2025). O'zbekistonda LegalTech sohasida milliy xizmatlar platformasi. *Modern Science and Research*, 4(1), 711–719. <https://www.inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/63961>.
SJIF: 5.051

maqsadlarni tahlil qilinib, ularning Legal Tech sohasiga ta'siri aniqlab chiqildi.
2222

Hujjatlarni tahlil qilish metodi. 2000-2025-yillar qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, hukumat qarorlari, president farmonlari, strategiyalar va huquqiy xizmatga oid me'yoriy asoslar o'rganildi.

Taqqoslash metodi. Lex.uz, my.gov.uz, yurxizmat va sud.uz platformalarining funksional imkoniyatlari, avfzalikari kamchiliklari o'zaro taqqoslandi.

Statistik ma'lumotlarni umumlashtirish metodi. My.gov.uz platformasidan foydalanuvchilar soni va oqimiga doir ochiq statistik ma'lumotlar umumlashtirildi.

Ummuman olganda, tadqiqotda qo 'lanilgan metodlar Legal Techning nazariy asoslarini yoritish, O'zbekiston sharoitida uni amaliy qo'llash imkoniyatlarini baholash va mavjud muommolarga ilmiy yechim va takliflar joriy etish imkoini beradi.

III.Natijalar

O'zbekistonda Legal Tech rivojlanishini 3-ta asosiy bosqichlari bor. Ular:

1. 2000-2010-yillar O'zbekistonga Legal Tech kirib kelishi.
2. 2010-2016-yillar Legal Tech tizimlarining faol joriy etilishi.
3. 2016-2025-yillar Legal Tech sohasining shaklanishi va hozirgi holati.

O'zbekistonda Legal Techga aloqador quydagi qonuniy hujjatlar qabul qilingan. Bunga kirib kelishining birinchi qadami 05.08.2000 yilda qabul qilingan O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "Qonun hujjatlarini turkumlashni takomillashtirish va huquqiy axborotlarni tarqatishni tartibga solish

chora-tadbirlari to'g'risida " qaror³ normativ-huquqiy hujjati bo'la oladi. Unga ko'ra O'zbekistondagi birinchi huquqiy axborot bazasi yaratilish ishlari Adliya vazirligiga topshiriladi. Shu qonunnig 8-qismiga binoan, 2007-yil Lex.uz platformasi ishlab chiqiladi va 2008 qilda foydalanish uchun yo'lga qo'yiladi. Ikkinchi bosqichida ko'plab huquqiy platformalar joriy qilingan. Lex.uz O'zbekistondagi eng yirik huquqiy baza hisoblanib hozirgi kunda unda 154 795 mingga yaqin normativ-huquqiy hujjatlarni o'z ichiga oladi. Ulardan 22 202 ta qonun hujjatlari, 19 149 ta Prezident hujjatlari, 37 668 ta hukumat hujjatlari, 26 006 ta vazirliklar, qo'mitalar va idoralar hujjatlari, 26 930 ta mahalliy davlat hokimiyat organlari qarorlari, 1057 ta sud hujjatlari, 4 988 ta xalqaro hujjatlar, 11 099 Oliy majlis hujjatlari, 3 883 ta texnik hujjatlar, 1 616 ta sud amaliyoti, 197 ta Markaziy saylov hujjatlarini o'z ichiga oladi. 11.12.2003 yil qabul qilingan O'zbekiston respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida" qonuni⁴ ushbu Qonunning maqsadi axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. 11.12.2003 yil qabul qilingan O'zbekiston respublikasining "elektron raqamli imzo to'g'risida" qonuni ushbu Qonunning maqsadi elektron raqamli imzodan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.⁵ 29.04.2004 yil qabul qilingan O'zbekiston respublikasining "Elektron hujjat aylanishi" qonuni ushbu Qonunning

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.08.200-yildagi "Qonun hujjatlaring turkumlashni takomillashtirish va huquqiy axborotlarni tarqatishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risidagi " qonuni. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 304-son. <https://share.google/Zn5pG3qtHU6FYN2wO>.

⁴ O'zbekiston Respublikasining qonuni, 11.12.2003 yildagi "Axborotlashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni 560-II-son. <https://share.google/hqYMnFOiieFEZgYkF>.

⁵ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.12.2003 yildagi "Elektron raqamli imzo to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni 562-II-son. <https://share.google/shXiIrL3hDeMd7Zjd>.

maqsadi elektron hujjat aylanishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.⁶ O‘rtacha hisobda 2000-2010-yillarda erishilgan Legal Techga aloqador ma’lumotlar va huquqiy bazalar shudur.

Ikkinchi bosqich 2010-2016-yillarni o‘z ichiga olgan. Bu davrda Legal Techga aloqador normativ-huquqiy hujjatlar va huquqiy platformalarni ko‘rib chiqamiz. 21.03.2012-yilda qabul qilingan **O‘zbekiston respublikasi prezidentining “zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori** ushbu qarorni maqsadi O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunigamuvofiq hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari (keyingi o‘rinlarda — davlat organlari) faoliyati samaradorligini oshirish, davlat va jamiyat qurilishi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni ta’minlash.⁷ 09.12.2015-yil qabul qilingan O‘zbekiston respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida” qonuni Ushbu Qonunning maqsadi elektron hukumat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.⁸ 12.08.2016-yil qabul O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining “Elektron hukumatning idoralararo ma’lumotlar uzatish tarmog‘ini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori ushbu qarorning maqsadi. “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunigamuvofiq (<https://lex.uz/docs/2833860>) hamda elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi

⁶ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.04.2004 yildagi “ Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida “ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.04.2004 yildagi 611-II-son. <https://share.google/71TzYVktJo9eWMDj>.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 21.03.2012 yildagi “ Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“ PQ-1730-son. <https://share.google/nTfJzowlAgYtP0bny>.

⁸ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 09.12.2015 yildagi “ Elektron hukumat to‘g‘risida “ O‘RQ-395-son. <https://share.google/Jr81WHeiJ2DbQyBjU>.

davlat organlari va boshqa tashkilotlarning (keyingi o‘rinlarda davlat organlari deb yuritiladi) idoralararo va idoralararo axborot tizimlari hamda axborot resurslari hamda elektron hukumatning markaziy ma’lumotlar bazalari sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish⁹ 2010-2016-yillarda ishlab ciqilgan huquqiy platformalar. 2013-yil yagona interaktiv davlat xizmatlari platformasi (my.gov.uz). 2015-yil elektron sud tizimi (e-sud) platformasi. 2015-yil ochiq ma’lumotlar portal (data.gov.uz). 2013-yil soliq to‘lovchilar uchun tizim (e-soliq). 2015-yil yagona interaktiv tizim (id.gov.uz).

Uchinchi bosqich 2016-2025-yillarni qamrab oladi. Bu davda han Legel Tech sohasini rivojlantirish uchun ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar platformalar ishlab chiqiladi va yo‘lga qo‘yiladi. Bunda dastalab 03.07.2018-yil qabul qilingan **O‘zbekiston respublikasi prezidentining “O‘zbekiston respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori**. Ushbu qarorning maqsadi mana shunday vazifalarni o‘z ichiga olgan. Iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko‘lamli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda, elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to‘lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda. Axborot-texnologik platformalarda faoliyat ko‘rsatadigan raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanmoqda, bu esa shunday platformalarning yangi modellarini yaratish

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.08.2016 yildagi “ Elektron hukumatning idoralararo ma’lumotlar uzatish tarmog‘ini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 262-son. <https://share.google/qug6CZ2kqTuoe2tMp>.

zaruratini taqozo etmoqda.¹⁰ 29.09.2022 yil qabul qilingan **O‘zbekiston respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida” qonuni**. Ushbu Qonunning maqsadi elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.¹¹ 02.07.2019-yil qabul qilingan **O‘zbekiston respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida” qonuni**. Ushbu Qonunning maqsadi shaxsga doir ma’lumotlar sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.¹² 05.10.2020 qabul qilingan O‘zbekiston respublikasi prezidentining “raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni. Ushbu farmonda mana shu mazmunga o‘xshash ko‘plab davlat oldiga qo‘yilgan vazifalar qo‘yilgan ulardan namuna: Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.¹³

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.07.2018 yildagi “o‘zbekiston respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3832-son <https://share.google/53wDW8CIACRUyiojF>.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.09.2022 yildagi “ Elektron tijorat to‘g‘risida “ O‘RQ-792-son <https://share.google/6e2lvxmZFUxqKkf4R>.

¹² O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.07.2019 yildagi “ Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida” O‘RQ-547-son <https://share.google/U5ueg9L6psX678Cyo>.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi “raqamli o‘zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-son <https://share.google/m4m3C0ueHi0xHvfbr>.

15.04.2022- yil qabul qilingan O‘zbekiston respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida” qonuni. Ushbu Qonunning maqsadi kiberxavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.¹⁴ 29.09.2022- yil qabul qilingan O‘zbekiston respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida” qonuni Ushbu Qonunning maqsadi elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.¹⁵ 25.05.2023 - yil qabul qilingan O‘zbekiston respublikasi prezidentining “raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori. Ushbu qarordan maqsad Aholi va tadbirkorlik subyektlariga raqamli xizmatlardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, byurokratik tartibotlarni qisqartirish, shuningdek, davlat boshqaruvi, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda hududlarni raqamli transformatsiya qilish.¹⁶ Bulardan tashqari 2017- yil Adliya ko ‘mak xizmati bosh loyihasi (e-huquqiy yordam), 2018- yil yagona Notariat axborot tizimi (e- notarius), 2019 - yil electron raqamli imzo modernizatsiyasi (e-imzo), 2020 – yil ijro auksionlari electron savdo tizimi kengaytirildi (e – auksion), 2024 – yil mobil identifikatsiya (One – ID), 2021 – yil fuqarolar va tadbirkorlar uchun huquqiy hujjatlarni avtomatlashtirilgan tarzda tayyorlash va elektron shaklda olish imkonini beruvchi (yurxizmat.uz) va 2025 – yil Lex.uz AI.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.04.2022 yildagi “kiberxavfsizlik to‘g‘risida” O‘RQ-764-son <https://share.google/TZ4kmtJ2arJKUubWr>.

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.09.2022 yildagi “elektron tijorat to‘g‘risida” O‘RQ-792-son <https://share.google/waZ0qJhJraphz2ij0>.

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.05.2023 yildagi “raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-162-son <https://share.google/GYCsuQN1zTuCGwPQ>.

Ummumiy qilib olganda 2000 – 2025 yillar davomida Legal Tech rivojlanishi uchun turli xil normativ – huquqiy hujjatlar qabul qilindi va huquqiy platformalar yaratildi. Yaratilgan platformalar faqatgina davlat xizmatchilar foydasi uchun emas balki aholi foydasi uchun ham ko‘plab qulayiklar yaratdi. Lega Tech joriy qilinishi davlat xizmatlarini tezlashtirishda, shaffoflashtirishda va samaradorliroq qilishda juda kata yordam berdi. 2020 – yildan boshlab “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiya asosida huquqiy xizmatlar to‘liq onlayn shaklga o‘tqazila boshladi. E-Sud, E-Notarius, E-Auksion, My.gov.uz va Yurxizmat.uz platformalari aholiga masofadan turib bepul yuridik xizmat olish imkonini yaratdi. Hamda shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik doirasi ko‘plab yangi g‘oyalar va tizimlarga yo‘la qo‘yildi. Shu qonunlar orqali onlayn huquqiy xizmatlar munosabati tizimlashtirildi. 2025- yilga kelib texnologiyalarni yangi bosqichi ya’ni sun’iy intellekt davri keldi. Sun’iy intellekt barcha turdagi sohaga o‘z ta’sini ko‘rsatdi. Bundan huquq sohasi ham chetda qolmadi. Bu yuridik xizmati ya’nada shaffof va tezlashtirishga yordam berishi prognozlanmoqda. Shunday qilib, 2000–2025 yillarda legal tech qog‘oz shaklidagi jarayonlardan to‘liq raqamlashtirilgan va sun’iy intellektga asoslangan avtomatlashtirilgan huquqiy tizimga o‘tish bosqichlarini bosib o‘tdi. Bu esa huquqiy tizim samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqiy savodxonligini rivojlantirish va adolatga erishish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi.

IV. Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Legal Tech kirib kelishi huquqiy sohada ancha yengilliklarni olib keldi. Birinchi navbatda qog‘ozbozlikga barham berildi. Bu nafaqat hujjatlarni saqlash, yig‘ishdagi yoki hujjatlarni soxtalashtirishdagi muammoga yechim bo‘ldi, hamda ekologik tarafdin ham foyda

olib keldi. Fuqarolar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratildi. Imkoniyati cheklangan yoki iqtisodiy jihatdan huquqiy maslahatlar uchun mablag’ to‘lay olmaydiganlar uchun keng imkoniyat yaratdi. Endilikda fuqarolar passport olish uchun ariza berish yoki ma’lum bir hujjat olish uchun uzoq masofani bosib o‘tishmaydi, uzoq navbat kutishmaydi va ortiqcha harajatlar qilishmaydi. Eng kerakli narsa bu telefonda kerakli platformani yuklab olish va himoyalangan dasturga shaxsiy ma’lumotlarini kiritishni talab qilmoqda. Bu uchun ortiqcha vaqt, mablag’ sarf qilishni hojati yo‘q. Shunda ko‘p imkoniyat bo‘lgani bilan har bir narsani yaxshi va yomon taraflari bo‘ladi bunda ham bir qancha kamchiliklari bor. Bu xavfsizlik masalasi. Har bir foydalanuvchi ham platformalarni qanday ishlatish haqida tushunchaga ega emas. Bu esa kiberjinoyatchilar qulay vaziyatni yaratdi. Ular oddiy qo‘ng‘iroq orqali telefondagi barcha yozishmalar, kodlar va pullarni yechib olish imkoniga egalar yoki bo‘lmasam foydalanuvchi o‘z login, parolini boshqa shaxsga ishonib etib qo‘yishi mumkin bu esa foydalanuvchini shaxsiy kabinetiga kirish shaxsiy ma’lumotlarni olishga imkoniyat beradi. Bundan muammolar faqat foydalanuvchilarda bo‘lmaydi, yuristlar uchun ham birmuncha qiyinchikilar paydo bo‘ladi. Masalan huquqshunoslar faqatgina huquq sohasini emas birgalikda texnologiyalarni ham qo‘shimcha o‘rganishlariga to‘g‘ri kelmoqda chunki, texnologiya aralashmagan soha qolmayapti. Yoki kiberjinoyatlar kim tomonidan amalga oshirilayotgani aniqlanmay qolmoqda bu orqali jinoyatchi toplimayapti jabrlanuvchi yuristlarga bo‘lgan ishonchi yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelmoqda. Jinoyatchini topishni iloji bo‘lmaydigan hollatlar ham bo‘ladi bunga sabab jinoyatchi O‘zbekiston hududida bo‘lmaganligi ya’ni jinoyatni uyishtirgan odam chet elda bo‘lishi ham mumkunligi. Bunga yechim yanada tizimlashtirilgan platformalarni joriy qilish yoki bor platformalarni yanada rivojlantirish va

kiberxujumdan himoya qilish choralarini yaratish, aholiga bu borada huquqiy ta'limni kuchaytirish va chet el davlatlari bilan hamkorlikni oshirish.

My.gov.uz, yurxizmat.uz, e-notarius va sud.uz platformalarini afzallik va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz.

Platformalar	Afzaliklari	Kamchiliklari
My.gov.uz	Davlat xizmatlaridan olayn foydalanish. Uzoq navbat kutmaslik. Vaqtini tejash. Bepul. 24/7 xizmatdan foydalanish.	Ba'zida tizim juda sust ishlashi. Bu platformalardan foydalanish uchun barcha hududlarda internet tarmog'ini yetarlicha ishlamasligi.
Yurxizmat.uz	Hjjatlarni tayyor shablони mavjudligi. Foydalanish uchun qulay. Huquqiy savodxonlikni oshishi.	Hujjatda qandaydur xatolik yoki kerakli faklar tushib qolsa bu hujjat yuridik kuchini yoqotishni. Hamma turdagi hujjatlar to'liq joylanmaganligi. Murakkab hujjatlar uchun yuristga murojat qilish zarurligi.
E.Notarius	1. Notarial harakatlarni elektron amalga oshirish.	1. Barcha notaries hodimlarida yetarli bilim va ko'nikma yo'qligi.

	2.Hujjatlarni soxtalashtirish kamayishi. 3. Ma'lumotlar yagona bazada saqlanadi. 4, Qayta tekshiruv uchun qulay.	2.Tizimning murakkabligi. 3. Dastur integratsiyasi ba'zi idoralar bilan hali to'liq moslashmagan
Sud.uz	Sud jarayonlari va qororlarni ochiq kuzata olish. Qidiruv tizimini mavjudligi.	Joylatilgan qarorlar barcha ma'lumotlarni ko'rsatmaydi. Arxiv ma'lumotlari to'liq raqamlashtirilmagan. Foydalanuvchilar tomonidan qarorlardagi temenlarni tushunishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi.

Huquqiy platformalarning foydalanish statistikasi.

my.gov.uz da xizmatlar soni 700 tadan oshdi. Bu o'tgan yilga nisbatan 23% o'sish degani! Fuqarolarning elektron xizmatlarga ishonchi ortib, my.gov.uz da ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni 10 milliondan oshdi. Shuningdek, portal xizmatlaridan 33 milliondan ortiq foydalanish ko'rsatkichi qayd etildi. my.gov.uz mobil ilovasi orqali davlat xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 4 milliondan oshdi (+2,5 million). Pullik elektron davlat xizmatlarining to'lov jarayonlari Yagona

billing tizimiga ulanishi orqali 50 milliondan ortiq tranzaksiyalar qulay va xavfsiz taqdim etildi. Elektron xizmatlar nafaqat qulaylik yaratadi, balki ekologiya uchun ham katta foyda keltiradi. Masalan, davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish ortidan aholining 128 mlrd so‘m mablag‘i va 160 tonna qog‘oz tejaldi. Qog‘ozni kamaytirish orqali esa 3,2 mingdan ortiq daraxt saqlab qolindi. Davlat xizmatlaridan my.gov.uz orqali foydalangan aholiga 149,5 mlrd so‘mdan ortiq chegirmalar taqdim etilishi esa fuqarolarga qo‘shimcha moliyaviy yordam bo‘ldi.¹⁷

Kelgusidagi tadqiqotlarda Legal Techdan foydalanish jarayonida aholining raqamli va huquqiy savodxonlik darajasini oshirish mexanizmlari batafsil o‘rganilishi va o‘rgatilishi lozim. Shuningdek, kiberxavfsizlikni kuchaytirish, platformalarni yagona ma’lumotlar bazasi bilan integratsiya qilish va chet davlatlar bilan kiberjinoyatchilikka qarshi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish chora – tadbirlarini yo‘lga qo‘yish kerak..

III.Xulosa

Texnologiyalar barcha sohalarga ta’sir o‘tqazishi tufayli Legal Tech paydo bo‘lgan yani texnologiya huquq sohasiga bo‘lgan ta’siri. Legal Tech ko‘plab imkoniyat bergani kabi kamchiliklarni ham paydo qildi. Masalan huquqiy platformalar paydo bo‘lgani huquqiy xizmatni tezlashtirdi va bepul qildi ammo bu kiberjinoyatchilar uchun yangi qulaylikni yaratdi, ular endi SMS – kod orqali shaxsiy ma’lumotlarni qo‘lga kirita oladilar. Ammo yillar davomida bu kamchiliklarga barham berilmoqda. Texnologiya kundan – kunga rivojlanib borayotgani sababli yana yangi muammolar yuzaga kelmoqda. Ma’lum bir

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2025, 18 fevral). Quyida my.gov.uz’ning 2024-yildagi natijalariga to‘xtalamiz. my.gov.uz. <https://e-gov.uz/news/quyida-mygovuzning-2024-yildagi-natijalariga-to'xtalamiz-1628>.

muddatdan so‘ng bu muammolar ham o‘z yechimini topadi. Sun‘iy intellekt rivojlanishi kelgusida O‘zbekistonda Legal Tech rivojlanishining yangi bir alohida qismi bo‘lib qolishi ham mumkin. Biroq, soha to‘liq takomillashgan emas. Internet infratuzilmasi, aholining raqamli savodxonligi, ma‘lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma‘lumotlar himoyasi kabi masalalar hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammolar bosqichma-bosqich bartaraf etilgan sari Legal Tech imkoniyatlari kengayib boradi va huquqiy tizim yanada samarali, ochiq va adolatli bo‘lishi ta‘minlanadi. Demak, Legal Tech nafaqat texnologik yangilanish, balki jamiyatning huquqiy ongini oshirish va adolatni ta‘minlashda muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islombek Abdixakimov Legal Tech: Huquqshunoslik Sohasidagi Texnologik Inqilob (<https://civil.uz/author/islombek/>).
2. X Xasanboyeva. (2025). O‘zbekistonda LegalTech sohasida milliy xizmatlar platformasi. *Modern Science and Research*, 4(1), 711–719. <https://www.inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/63961>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.08.200-yildagi “Qonun hujjatlaring turkumlashni takomillashtirish va huquqiy axborotlarni tarqatishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi “ qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 304-son. <https://share.google/Zn5pG3qtHU6FYN2wO>.
4. O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 11.12.2003 yildagi “Axborotlashtirish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni 560-II-son. <https://share.google/hqYMnFOiieFEZgYkF>.

5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.12.2003 yildagi “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 562-II-son. <https://share.google/shXiIrL3hDeMd7Zjd>.
6. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.04.2004 yildagi “ Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida “ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.04.2004 yildagi 611-II-son. <https://share.google/71TzYVktJo9eWMDj>.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 21.03.2012 yildagi “ Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“ PQ-1730-son. <https://share.google/nTfJzowlAgYtP0bny>.
8. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 09.12.2015 yildagi “ Elektron hukumat to‘g‘risida “ O‘RQ-395-son. <https://share.google/Jr81WHeiJ2DbQyBjU>.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.08.2016 yildagi “ Elektron hukumatning idoralararo ma’lumotlar uzatish tarmog‘ini tashkil etish. chora-tadbirlari to‘g‘risida “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 262-son. <https://share.google/qug6CZ2kqTuoe2tMp>.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.07.2018 yildagi “o‘zbekiston respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3832-son <https://share.google/53wDW8CIAcRUYiojF>.
11. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.09.2022 yildagi “ Elektron tijorat to‘g‘risida “ O‘RQ-792-son <https://share.google/6e2IvxmZFUxqKkf4R>.
12. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.07.2019 yildagi “ Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida” O‘RQ-547-son <https://share.google/U5ueg9L6psX678Cyo>.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi “raqamli o‘zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-son <https://share.google/m4m3C0ueHi0xHvfbr>.
14. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.04.2022 yildagi “kiberxavfsizlik to‘g‘risida” O‘RQ-764-son <https://share.google/TZ4kmtJ2arJKUubWr>.
15. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.09.2022 yildagi “elektron tijorat to‘g‘risida” O‘RQ-792-son <https://share.google/waZ0qJhJraphz2ij0>.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.05.2023 yildagi “raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-162-son <https://share.google/GYCsluQN1zTuCGwPQ>.
17. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2025, 18 fevral). Quyida my.gov.uz’ning 2024-yildagi natijalariga to‘xtalamiz. my.gov.uz. <https://e-gov.uz/news/quyida-mygovuzning-2024-yildagi-natijalariga-to‘xtalamiz-1628>.